

EKZESTENSIALIZMNING ADABIY OQIM SIFATIDA SHAKLLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Dilnoza Ramatjanovna RUZMATOVA

dosent

filologiya fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

dishemu2017@gmail.com

Feruza Muzaffarovna SHAPSANOVA

o'qituvchi

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

shapsanovaferuza@gmail.com

Annotatsiya

Maqola ekzistensializmning adabiy oqim sifatida shakllanishi va yuzaga kelishining bosqichma-bosqich tahliliga bag'ishlangan. Maqolada ekzistensializmning taraqqiyoti, uning asosiy g'oyalari, namoyandalari va adabiyotga qay tarzda kirib kelgani haqida bahs yuritiladi.

Taynch so'zlar: ekzistensializm, ekzistensial inqiroz, nigilizm, absurdizm, borliq va yo'qlik, badiiy asar, san'at.

СТАНОВЛЕНИЕ ЭКЗИСТЕНЦИАЛИЗМА КАК ЛИТЕРАТУРНОГО ТЕЧЕНИЯ И ЕГО ОСОБЕННОСТИ

Дилноза Раматжановна РУЗМАТОВА

Доцент

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Узбекский государственный университет

мировых языков

Ташкент, Узбекистан

dishemu2017@gmail.com

Феруза Музаффаровна ШАПСАНОВА

преподаватель

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

shapsanovaferuza@gmail.com

Аннотация

Статья посвящена поэтапному анализу возникновения и становления экзистенциализма как литературного направления. В статье рассматривается развитие экзистенциализма, его основные идеи, проявления и пути его проникновения в литературу.

Ключевые слова: экзистенциализм, экзистенциальный кризис, нигилизм, абсурдизм, существование и небытие, произведение искусства, искусство.

XX asr adabiyoti boshqa davrlarga nisbatan olganda keng qamrovli va sermahsul davr hisoblanadi. Bu davr Amerika va Yevropa adabiyotida realizmning intixosi va keng qamrovli modernizmning boshlanishi bilan muhrlangan. Adabiyotda modernizm va postmodernizm oqimining paydo bo'lishiga insoniyat boshiga kelgan eng katta kulfatlar – I va II jahon urushlarini asosiy sabablardan biri sifatida ko'rsatish mumkin. Modernizm bu faqatgina bir yo'nalish emas, balki turli adabiy oqimlar, janrlar va stillar to'plamidir. Mazkur ilmiy ishda modern adabiyotning o'ziga xos tendensiyalaridan biri ekzistensializm oqimi va uning xususiyatlari badiiy asarlar misolida taxlilga tortiladi.

Ekzistensializmga oqim sifatida, 1940-yilda fransuz faylasuf-yozuvchisi Jan-Pol Sartr (1905–1980) tomonidan asos solingan. Shunday bo'lsada, ekzistensializm oqimining shakllanish tarixi fransuz olimlaridan avval nemis faylasuflariga, rus yozuvchi olimlariga, va ulardan ham avvalroq qadimiy Yunon faylasuflariga borib taqaladi. Bu haqida quyiroqda bafurja to'xtalib o'tamiz.

Ekzistensializm umumiy qilib olganda mavjudlik haqidagi ta'limotdir, aynan insonning shaxs sifatida mavjudligi, uning hayotdagi o'rni, yashashdan maqsadi, hayot ma'nosi haqida baxs yurituvchi yo'nalish deb hisoblash mumkin. XX asrga kelib u san'atning ko'pgina qirralarida o'zini namoyon qildi, ayniqsa II jahon urushi, Yaponiyada Hiroshima va Nagasakining bombardimon qilinishi hamda fashizm va totalitarizm oqibatida individuallik yo'qolishi kabi insoniyat tanazzuli sabablari kuzatiladi. Xususan, xolokast daxshatlaridan keyin ko'pgina olimlar inson hayotining ma'nosi haqidagi falsafani qaytadan olamdagi asosiy muammo qilib o'rta qo'yishdi. Ekzistensializm avvalambor falsafiy tushunchadir. U falsafiy evalutsiya orqali san'atga kirib keldi va ayniqsa adabiyotda o'chmas iz qoldirdi.

Ekzistensializm zamonaviy san'atning ko'pgina turlarida uchraydi. Misol uchun rassomchilik va haykaltaroshlikda *abstrakt ekspressionizm* [4] aynan ekzistensializm ta'sirida II jahon urushidan so'ng vujudga keldi.

*Rassomchilik*da ushbu oqim namoyondalari Jekson Pollok va Mark Rotko o'zlarining ishlarida moddiy olamni emas, balki psixologik kechinmalarni,

insonning shaxs sifatida *ozodligi-yu haqiqiyli*gi (bu terminlar ekzistensializmga tegishli, quyida alohida to'xtalamiz)ni tasvirlaydi. Rassomchilik va haykaltaroshlikdagi asosiy ekzistensial mavzular bu – chuqur ta'sirchanlik, qo'zg'atuvchi fikrlar, an'anaviylikdan qochishdir. Ko'pgina ijodkorlar ijodida bu mavzular uchrab turadi. San'atning rassomchilik sohasiga aloqador yana bir buyuk shaxs bu Frensis Bekondir (1909–1992). Uning “Qichqirayotgan Papa” asarida ekzistensial qo'rquv orqali mavjudlikning absurdligi timsolini yaqqol ko'ra olamiz. Bunday misollar san'at va adabiyotda son-sanoqsizdir va ularning har birini ekzistensializm namoyondasi deyishimiz absurd g'oya bo'lib qoladi.

Haykaltaroshlikda shved haykaltaroshi Alberto Jakomettining “Yurayotgan odam” (“Walking Man”) asari zamonaviy san'atda ekzistensial mavzular gavdalangan asar deb qaraladi. Unda haykaltarosh hozirgi jo'shqin davrdagi insonning shaxs sifatida yolg'izligini timsol qilib oladi.

Jef Malpas o'zining maqolasida *ekzistensializm* va *ekzistensial* terminlariga alohida e'tibor beradi. *Ekzistensial* termini keng ma'noda qo'llaniladi va subyektning mavjudligini ta'kidlaydi. *Ekzistensializm* esa falsafiy yondashuv bo'lib, hech qanday aniq yoki zarur ma'no ko'rsatilmagan hayotda inson mavjudligining muammoli tomonlari ustida bahs olib borishdir [10; 293]. Misol uchun, Shekspirning “Gamlet” tragediyasida ekzistensial mavzularni uchratish mumkin, lekin biz Shekspirni ekzistensialist deyishdan yiroqmiz. Ekzistensializm g'oyalari juda ham keng va umumiy. Uning konseptsiyasini deyarli barcha yozuvchilarning asarlarida uchratish mumkun, chunki bu oqim shaxning mavjudligini, uning hayotdagi o'rminini o'rganadi. Balki, aynan shu muammo ekzistensializmni adabiyotda gullashiga sabab bo'ldi. Ilm-fanda ekzistensializm adabiy oqim sifatida qabul qilinishidan oldin, unga xos xususiyatlar badiiy asarlarda qo'llanilishi renessans davriga borib taqaladi. Demak, har bir oqim shakllanish xususiyatiga ko'ra dastlab tajribada bir necha davriy bosqichdan o'tib, so'ngra nazariy asos kasb etadi. Shunday ekan, Shekspirning tragediyalaridan tortib modernizm oqimi namoyondalarining asarlarigacha ekzistensial g'oyalarni uchratish mumkun. Bunga qaramasdan V.V. Ivashevaning fikriga ko'ra,

ekzistensializm badiiy oqim sifatida 1940-yillarda Fransiyada vujudga keldi [2; 44].

Ekzistensializm falsafiy oqim sifatida Germaniyada, ammo adabiy oqim sifatida Fransiyada paydo bo'ldi, - deb ta'kidlaydi Jef Malpas. Chunki nemis olimlarining asarlari falsafiy tomondan o'rganiladi (F.Nitshe bundan mustasno), fransuz faylasuf yozuvchilari esa oqim g'oyalarini badiiy asarlar orqali yoritib berdi, va ularning asarlari badiiy tomondan yondashilinadi. Hatto, ekzistensializmni fransuz adabiyotida paydo bo'lgan, keyinchalik Yevropaning boshqa mamlakatlariga va Amerikaga yoyilgan adabiy tendensiya deb ham atasa bo'ladi [10; 295].

Ekzistensializmning rivojlanish bosqichini 3 qismga ajratish orqali, ushbu oqimning mohiyatini izchil o'rganishga erishish mumkin:

1. Denmark olimi Soren Kyerkegor (1813–1855) va qisman Fyodr Dostoyevskiy (1821–1881) ijodida;
2. Nemis faylasuf-olimlari Fredrix Nitshe (1844–1900), Karl Yaspers (1883–1969), Martin Xaydeggerlarni (1889–1976) asarlarida;
3. Fransuz faylasuf-yozuvchilari Jan-Pol Sartr, Simona de-Bovar, Albert Kamyu, Gabriel Marsel, Moris Merlo-Pontilar badiiy va falsafiy asarlarida. (1930–1970).

Ekzistensializm oqimining shakllanishi Denmark olimi Soren Kyerkegor bilan bog'liq deb bilinadi. Soren Kyerkegorning 1813–1855-yillar davomida yaratgan asarlarida shaxsning hayotdagi mavjudlik o'rni asosiy falsafiy muammo deb birinchi marotaba o'rganildi. Kyerkegor yashagan davr falsafada Gegel davri deb ataladi. Ya'ni hayotga mantiqiy yondashish va haqiqatga mantiqiy o'ylash orqali erishish degan ta'limot yoyilgan davr. Soren Kyerkegor aynan shu ta'limotga qarshi o'zining *mavjudlik* falsafasini kiritdi. Uning fikricha o'sha davrda mashhur bo'lgan sistematik falsafa borliq va haqiqat muammolariga yechim topayotib, inson va uning mavjudligini unutib qo'ydi. Kyerkegor falsafasi jamiyatni emas balki shaxsning borliqda mavjudlik muammolariga e'tibor qaratadi. Uning ta'limoti insonning o'zligini anglashga yordam beradi va bu g'oya XX asr

o'rtalarida to'la qonli ekzistensializmga aylanadi. Soren Kyerkegorning fikricha inson zoti avvalambor hayvondan ongli mavjudot bo'lganligi uchun emas, balki o'zini shaxs deb bilgani uchun ajralib turadi. Chunki ong qisman ravishda hayvonlarda ham mavjud. Hayvonlar o'zini urug'-aymog' qismi sifatida anglaydi. Insonlar esa o'zini individ, shaxs sifatida anglaydi, u urug'chilikdan muhimroqdir.

Kyerkegor insonlarni ekzistensial haqiqatga yetaklaydi. Uning fikricha ekzistensial haqiqat boshdan kechiriladi va uni boshdan kechirish uchun inson individ sifatida mavjud bo'lishi kerak [7; 73]. O'z-o'zini shaxs sifatida anglab yetish esa insonni jamiyatga ergashmaydigan *yakka, yolg'iz shaxsga* aylantiradi. Jan-Pol Sartr o'zining nazariyasida inson yolg'iz bo'lishga mahkum deb ta'kidlaydi va bu yolg'izlik ekzistensial haqiqatdan so'ng anglab yetiladi [15; 242]. Yana bir mashhur fransuz yozuvchisi Albert Kamyu o'z asarini "Begona" deb nomlashi orqali tartibsizlik hukmron bo'lgan hayotda mavjud bo'lgan yakka individga ishora qiladi. Bu yerda yakka, yolg'iz, begona so'zlari to'g'ri ma'noda emas balki ko'chma ma'noda ishlatiladi. Ya'ni ekzistensial tanazzulni boshdan kechirayotgan shaxs tushuniladi. Kyerkegor ta'kidlashicha, mavjudlik va o'lim oldida xavotir va qo'rquvni his qilish, anglab yetish emas, ekzistensial haqiqatga yetaklaydi va shu orqali inson o'zligini kashf qiladi.

Kyerkegor o'z asarida ekzistensial falsafaning o'ziga hos kategoriyasini ishlab chiqadi va uni "hayot yo'lining uch bosqichi" deb ataydi. Bular *estetik, etik* va *diniy* bosqichlardir.

Estetik bosqich – shahvat, zavqga berilgan insondir, u hayot ma'nosini mayishatda deb biladi, afsuski bu bosqich insonlarda hayotdan qoniqmaslik darajasiga olib boradi va inson hayotining ikkinchi bosqichini boshidan kechiradi.

Yetuk *bosqich*da inson aqlga tayanib, hayotni yaxshi-yomonga ajratishni boshlaydi hamda jamiyatda paydo bo'lgan qonun-qoidalarga bo'ysunadi. Afsuski, bu bosqichda inson shaxsiyatini yo'qotadi. Chunki etik qoidalar umumiydir, umumiylik esa har bir insonga aloqador. Inson shaxs sifatida o'zini tan olarkan, etik bosqichda ham noqulaylikni his qiladi va shu bilan uchinchi bosqich – diniy bosqichni boshdan kechiradi.

Diniy bosqich. Kyerkegor uchinchi, ya'ni diniy bosqichni ekzistensial tanazzulga yechim deb biladi. Diniy iymon etik bosqichni yo'qqa chiqaradi. Kyerkegorning diniy iymoni hayotni bir-biriga zid paradokslardan iborat deb bilishidir, unda to'g'ri va noto'g'ri yo'q, unda faqat qalban his qilish, ulkan kuchning mavjudligiga iymon keltirish bor. Kyerkegor nazariyasini Injilda gavdalangan Avram (Ibrohim a.s.) voqeasi asosida mustahkamlaydi. Unda Avramga Xudo tomonidan o'z farzandini qurbonlik qilishi buyuriladi va Avram qiyin vaziyatda qoladi, chunki u farzandini o'ldirsa gunohkor bo'lishi tayin. Avram ikki vaziyatdan qay birini tanlamasin ikkisi ham Xudoning buyrug'i va aynan shu nuqtada paradoks paydo bo'ladi. Etik bosqichda Avram bu ishni vaxshiylik deb bilib, qurbonlikdan bosh tortishi kerak edi va bu holat uni jamiyatning bir qismi qilib qo'yardi. Avram esa haqiqiy iymonga ergashib farzandini saqlab qoladi, Xudo uning o'rniga qo'zichoqni qurbonlik qilishga buyuradi. Shunday qilib, diniy bosqichda inson o'zligini jamiyatdan, aql-idrokdan yuksakroq deb anglab yetadi, va o'zini barcha etik qonun-qoidalarni o'rnatuvchi Xudoga tegishli deb bildi [17; 323–325]. Ekzistensial terminlar bo'lmish *qo'rquv* va *havotir*ni ham Kyerkegor avvalambor diniy kategoriyalardir deb ta'kidlaydi va o'zining nazariyasida *Xudoga to'g'ridan-to'g'ri murojat* konsepsiyasini ishlab chiqadi. Ko'rib turibmizki, Soren Kyerkegorning ekzistensial falsafasi keyinchalik XX asrda paydo bo'lgan ekzistensializmning turli yo'nalishlarini asosi bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa uning g'oyalari XX asr nemis faylasufi Karl Yaspersning ekzistensial fikr-mulohazalarida aks etadi. Yasper o'z ishlarida “chegaraviy vaziyat” tushunchasini ishlab chiqadi. Bu hayot va o'lim o'rtasidagi chegara bo'lib, o'lim hayotning oxirgi nuqtasi ekanligini anglash insonni *ozodlikka* va *o'z-o'zini* anglashga yetaklaydi deb biladi. Kyerkegor kabi Yaspers ekzistensial inqirozga Xudo tomon shakllangan iymonni yechim qilib oladi. Kyerkegor o'z asarlari va g'oyalari bilan nafaqat nemis va fransuz mutaffakirlarini qo'zg'atti, balki ingliz ekzistensializmining buyuk namoyondasi Ayris Myordokning 60-yillardagi ijodiga katta ta'sir ko'rsatadi. Adiba Kyerkegor ishlaridan ilhomlanib “Chopilgan Bosh” (1961),

“Yakkashox” (1963), “Italiyalik Qiz” (1964) va “Farishtalar Zamoni” (1966) kabi nodir adabiy asarlar yaratdi.

Ekzistensializm o’chog’i Soren Kyerkegor deb tan olingan bo’lsada, uning “Qo’rquv va titroq” (1843), “O’lim uzra xastalik” (1849), “Yoki – yo” (1843) kabi ishlari ko’proq falsafiy yondashuv orqali o’rganiladi. XIX asr adabiyotida ekzistensializmning badiiy ko’rinishi esa ko’proq rus yozuvchisi Fyodr Dostoyevskiyning romanlarida uchraydi. Bu bilan adibni ekzistensialistlar qatoriga kiritmaymiz, balki uning asarlari ekzistensializmni adabiy oqimga aylanishiga turtki bo’ldi deb bilamiz. Dostoyevskiy o’ziga xos baqiiy asarlar yaratdi. Uning asarlari keyinchalik shakllangan fransuz ekzistensializmidan farq qiladi, balki ko’proq ingliz eksistensializmi (Ayris Myordok, Vilyam Golding) namoyondalari yodashuvida o’xshashlik kuchliroq seziladi. Dostoyevskiy romanlari ko’pgina yozuvchilarning ilhom parisiga aylandi, ayniqsa Frans Kafka, Nitshe va Sartr kabi ekzistensialistlarning. Dostoyevskiyning falsafasi Kyerkegor nazariyasiga juda o’xshash, ulardagi farq esa ijod maxsulida. Dostoyevskiy falsafiy ish emas, balki romanlar yaratadi. Shuning uchun uning g’oyalari Kyerkegornikidan kengroq miqyosda tarqaldi. XX asr fransuz yozuvchilari ham o’zlarining ekzistensial g’oyalarini badiiy til yordamida ommaga yoyishadi. Dostoyevskiy ko’pgina asarlarida jamiyat tomonidan qoralangan, massadan ajralgan *yolg’iz shaxs* obrazlarini yaratdi. Bu qahramonlar ko’pincha ziddiyatli vaziyatlarda, o’z savollariga jamiyat tomonidan o’rnatilgan etik qonun-qoidalardan javob topa olmagan va hayot ma’nosi haqida ikkilamchi fikrda bo’lgan holda tasvirlanadi. *Yolg’iz shaxs* obrazi ekzistensialistlarning umumiy jihatlaridan biridir.

Dostoyevskiy o’zining “Aka-uka Karmazovlar” (1878) asarida shunday deydi: “*Agar Xudo mavjud bo’lmasa, barcha narsa iznli bo’lardi*” [5]. Mana shu bir gap *ekzistensial inqirozni* ifodalab beradi. Agar insonlarni ustidan sud qiluvchi Xudo bo’lmasa, dunyodagi barcha yomonliklar javobsiz qoladi. Yoki bundan ham muhimrog’i, nima uchun bu yomonliklar mavjud? Xudo bor bo’lsa nega bunga yo’l qo’ydi? Jan-Pol Sartr o’zining “Ekzistensializm bu gumanizm” (1946) asarida Dostoyevskiyning yuqoridagi gapini keltirib o’tadi va unga qo’shimcha ravishda,

“Shunday qilib, U mavjud bo’lmasa, inson yerda, butun olamda hukmdordir” [9; 28-29], deydi. Bu degani dunyodagi barcha yovuzliklarga insonning o’zi sababchi, lekin insoniyatning o’zi bundan bexabar. Dostoyevskiy asarlarida ekzistensial muammolarga Xristian gumanistik muhabbati bilan yechim ko’rsatadi, va bu uni fransuz ekzistensializmi asoschisi Sartrning g’oyalaridan farqlab turadi. *“Aka-uka Karmazovlar”* asarida Dostoyevskiy yana bir mashxur parodoksal voqeani keltirib o’tadi. Asar qahramonlari Ivan va Alyosha o’rtasidagi suxbatda Ivan Alyoshadan butun dunyoning baxti uchun bitta begunoh go’dakni qurbon qila olasanmi, deb so’raydi. Alyosha bu savolga yo’q deb javob beradi [5; 245].

Valter Kaufman o’zining *“Ekzistensializm, Dostoyevskiydan Sartrgacha”* deb nomlangan asarida Fyodr Dostoyevskiyning *“Yer ostidan maktublar”* (1864) asarini Ekzistensializmga eng katta turtki bo’lgan badiiy asar deb tilga oladi [6; 10–11]. Bu badiiy asarda Kyerkegordan tortib Sartr, Kamyuning g’oyalarigacha uchratish mumkun.

Dostoyevskiydan farqli o’laroq, avstryalik yozuvchi Frans Kafka (1883–1924) asarlarida ekzistensial muammoga hech qanday javob ko’rsatilmaydi, undan qutulish yo’lini ham yoritib bermaydi. Aksincha, u asarlarida mavjudlikning mantiqsizligini oddiy hayot misolida ko’rsatadi. Kafkaning yo’nalishini ko’proq biz Sartrning ateistik ekzistensializmi va Kamyuning absurdizmiga qiyoslay olamiz. Uning *“Evrilish”* (1915) asarida inson hashorotga aylanib qolsada o’zining absurd hayotini davom etadi, yoki *“Jarayon”* (1925) asarida shaxs qilmagan ishi uchun mantiqsiz tergovga tortiladi. Frans Kafkaning asarlari XX asr absurdizmining paydo bo’lishiga katta ta’sir ko’rsatdi.

Ekzistensializm XX asr o’rtalarida ikki turga bo’lindi: diniy ekzistensializm va ateistik ekzistensializm. Diniy ekzistensializm Soren Kyerkegor va Fyoder Dostoyevskiy asarlari orqali vujudga kelgan bo’lsa, ateistik turi Fridrix Nitshening *“Xudo o’ldi, uni biz o’ldirdik”* degan g’oyasidan boshlanadi. Nemis faylasuf-yozuvchisi Fredrix Nitshe 1844–1900-yillarda Germaniyada yashab ijod qilgan. Adib juda ko’p yozuvchi-faylasuflarni ilhomlantirdi, jumladan Sartr va Xeydegger uning falsafasini ekzistensializmga fundament qilib oldilar. Fridrix Nitshe ozining

nigilizm oqimiga asos solgan, va Kyerkegor kabi zamonining yetakchi aqidalariga qarshi turgan. Uning shu xislati Kyerkegor bilan bog'laydi, ya'ni ikki olim jamiyat muammolariga emas, balki individning ekzistensial inqiroziga e'tibor qaratishadi. Ammo inqirozga turli xil yondashib o'zlariga xos yechim keltirishadi. Kyerkegor yechimni dindan topsa, Nitshe Xudodan voz kechgan holda kashf qiladi. Uning "*Xudo o'ldi, uni biz o'ldirdik*" degan jumlasini u yashagan davrda ostonada turgan modernizmga ishoradir. Ya'ni Yevropaning xristian dinidan qoniqmaslik ruhiyatiga moyil bo'lgan davr. Nitsheining pozitsiyasida yunon faylasufi Aristotelning ta'siri seziladi. Nitshe haqiqatni dinlardan izlashni to'xtatib, real hayotga qaytishni, ya'ni haqiqat yashab turgan hayotimizning o'zidagiligini uqtiradi. Xudoni yo'qotgan individ *nigilizm*ni boshdan kechirishni boshlaydi. *Nigilizm* bu hayotning mutlaq ma'nosizligini anglatadi. Nitshe zamonining *metafizik haqiqatiga* qarshi o'zining *ilmiy haqiqat* nazariyasini qo'yadi. Uning nazariyasi to'g'ridan-to'g'ri Platonning Ezgulik va xristianlarning Xudo konsepsiyasini rad etadi. Nitshe hayot qiyinchiliklariga yupanchni idealistik qarashlardan izlashni qoralaydi va ekzistensial inqirozga o'zining "*a'lo odam*" g'oyasi bilan yechim topadi. Adib o'zining "Axloq geneologiyasi haqida" (1887) essesinde "ijodkor ruh" va "to'liqlantiruvchi kuch" orqali post-nigilistik jamiyatning vudjudga kelishi ehtimolini uqtiradi. Bu jamiyat har qanday diniy aqidalar va *nigilizm*ni bosib o'tadi, hayotda mazmun yarata oladi [13; 118–119].

Nitshe o'zining "Zardusht tavallosi" (1885) asarida a'lo odam haqida shunday yozadi: "*Qarang, men sizlarga a'lo odam haqida ta'limot berajakman... A'lo odam – zaminning mazmuni. Sizning irodangiz aytsin: "Mayli, a'lo odam zaminning mazmuni bo'lsin! Birodarlarim, men sizga iltijo qilib ayturman: zaminga sodiq bo'lingiz va yer uzra umid to'g'risida sizga so'zlayotganlarga ishonmangiz!"*" [1; 7–8].

Nigilizm ruhiyati Birinchi jahon urishidan so'ngra Yevropada yuzaga kela boshladi. Buni biz *modernizm* va *yo'qotilgan avlod* namoyondalarining asarlarida kuzatishimiz mumkun. Ularning g'oyalari barcha an'anaviy aqidalarni rad qilish bilan boshlandi. Xatto yo'qotilgan avlod yozuvchilari buni hayot tarziga

aylantirdilar. Ikkinchi jahon urushidan so'ng nigilizm cho'qqiga chiqdi va nemis-fransuz faylasuf olimlari hayot ma'nosi muammosini yana bir bor ko'tarishdi. Bu davrda ekzistensializmning asosiy vazifasi nigilizm bilan kasallangan insoniyatga davo topish bo'lib xizmat qiladi, - deydi Stefan Bolea [14; 64].

Ekzistensializm oqim sifatida yana bir nemis olimi ta'sirida yuzaga keldi. Martin Xaydegger (1889–1976) fenomenologiya nazariyasi asoschisi Edmund Gusserlning shogirdi bo'lgan. Gusserl tomonidan yaratilgan fenomenologiya borliq asosan inson ongi va tafakkuri yordamida vujudga kelgan deb uqtiradi. Tafakkur bu olamni tushunishning yagona manbai deb biladi. Martin Xaydegger esa uning nazariyasida “hayot ma'nosi” muammosini ko'taradi va bu muammoni fenomenologiya orqali o'rganishga kirishadi. U o'zining “Borliq va Vaqt” (1927) deb nomlangan falsafiy asarini yaratdi. Bu asar Jan-Pol Sartrning “Borliq va Yo'qlik” (1943) nomli asarini vujudga kelishiga va ekzistensializm oqimining paydo bo'lishiga sababchi bo'ldi. Martin Xaydegger o'zini ekzistensialist deb nomlashdan bosh tortgan, uni bu oqim namoyandasi deb Sartr tan oladi, chunki uning “Borliq va Vaqt” asari aynan individning mavjudlik tabiatini o'rganadi. Asarda Xaydegger mavjudlikni “*daisen*” deb ataydi, va undagi mohiyat mavjudlikning o'zidan paydo bo'ladi, deb ta'kidlaydi [8]. Bu formula jahonda Sartrning “*borliq mohiyatdan avval*” deb aytgan fikriga to'g'ri keladi. Ya'ni inson avval mavjud bo'ladi, undagi mohiyat keyin shakllanadi. Xaydeggerning “*daisen*” ta'limoti faqat insonlarni nazarda tutadi. Uning fikricha “*daisen*” mohiyat saqlamaydi, balki yaratadi. Insonlardagi mohiyat uning qanday umr kechirishiga bog'liq deb hisoblaydi. Umrni qay tariqa kechirish, uni da'vat qiluvchi bilan bog'laydi. Insonlarni kim da'vat qiladi? Bu savolga Xaydegger insonning o'zi deb javob beradi [3; 158]. Ya'ni inson o'zligini o'zi yaratadi, uning qanday inson bo'lishi uning mavjud bo'lishidan avval belgilab qo'yilmagan. Bu bilan ekzistensialistlar *taqdir* degan tushunchani rad etishadi. Jan-Pol Sartr uning o'rniga *erkinlik* va *erkin tanlov* terminlarini hayotga tadbiiq qila boshlaydi. Bunga qaramasdan, Martin Xaydegger insonning to'la qonli ozodligi tushunchasini yoqlamaydi va shu yo'sinda Sartrning ekzistensializmiga qarshi turadi. Xaydegger

inson mavjud bo'lishi bilan dunyoga aniq vaziyatlarda (bular: aniq bir zamon, davlat fuqarosi, oila a'zosi, aniq bir jins vakili bo'lishi mumkun) *uloqtiriladi* deydi. Inson doim jamiyatning bir qismi bo'lib kelgan, shunday ekan u jamiyatda mavjud bo'ladi, va o'zining mohiyatini yaratadi. Odamzot qarorlariga jamiyat doim bevosita va bilvosita ta'sir etadi - deydi Martin Xaydegger.

Martin Xaydegger qadimgi yunon faylasuflari metafizikasini fenomenologiya orqali yangilab talqin qildi. Jan-Pol Sartr bu talqinni ekzistensializm deb atadi. Ekzistensialistlar qadimgi yunon falsafasini, asosan Suqrotchilikni yana yerga tushirishdi deb ta'kidlaydi Valter Kaufman [15; 51]. Qadimgi yunon faylasuflari *essensiyalizm*ga asos solishadi. Bu ta'limot har bir predmetning zamonda mavjud bo'lishi uchun avvalambor uning mohiyati yuzaga keladi, va bu mohiyat orqali inson borliqda paydo bo'ladi deb ta'kidlaydi. Fransuz yozuvchisi Jan-Pol Sartr bu tamoyilni o'zgartirib o'zining mashxur "*mavjudilk mohiyatdan avval*" g'oyasini ilgari surdi. Jan-Pol Sartr (1905–1980) taniqli faylasuf, yozuvchi va sotsiolog bo'lib, o'zi asos solgan ekzistensializm oqimi yetakchisi ko'pgina asarlar muallifi sifatida tanildi. Sartr 1945-yilning oxirida Parijda ekzistensializm tendensiyasini marksizm va xristian tanqidchilarining tanqididan himoya qilish maqsadida "Ekzistensializm bu – Gumanizm" deb nomlangan mashxur ma'ruzasini o'qiydi. Bu ma'ruza uning falsafiy ishi "Borliq va Yo'qlik" (1943) asosida yoziladi. Adib bulardan tashqari ko'pgina badiiy asarlarning muallifidir. Uning qalamiga "Ko'ngil aynishi" (1938), "Devor" (1939), "Pashshalar" (1943), "Yo'l yo'q" (1945) kabi jahon adabiyotida beqiyos joy olgan badiiy asarlar mansub. Sartr o'zining zamondosh hamfikrlari Simona de-Bovar va Moris Merlo-Ponti bilan birgalikda ekzistensializmni adabiy oqimga olib chiqdi. Bunga qaramasdan ularning talqinida ziddiyatlar ham uchrab turadi. Aynan fransuz ekzistensializmi keyinchalik oqimning Buyuk Britaniyaga adabiy shaklda kirib kelishiga sababchidir. Ingliz adabiyotida ekzistensializmning yetakchi namoyondasi Ayris Myordok deb tilga olinadi. U ish faoliyatini Sartrning ijodi bilan boshlaydi va "Sartr, Romantik ratsionalist" (1953) deb nomlangan falsafiy

asarini yaratadi. Keyinchalik “To’r ostida” (1954), “Sehrgardan qochish” (1956) kabi ekzistensial romanlarini yozadi.

Ekzistensializm yorlig’idan yuz o’g’irgan maxshur yozuvchi bu Albert Kamyu hisoblanib, u o’zining absurdizm oqimini Fredrix Nitshe va Frans Kafkaning ishlaridan ilhomlangan holda shakllantirdi. Uning “Sizif haqidagi asotir” (1942), “Isyon qilayotgan odam” (1951) kabi esselari absurdizm nazariyasini ochib beradi. Shunga qaramasdan absurd termini bu ekzistensial tushunchadir, ya’ni absurd bu ma’nosi yo’q hayotdan ma’no qidirish demakdir. Yozuvchining maxshur “Begona” (1942) romani ham ekzistensializmdagi *yakka shaxs* tushunchasiga ishora qiladi.

Fransuz yozuvchilari tomonidan shakllangan adabiy ekzistensializm oqimida individ va jamiyat o’rtasidagi ziddiyat, *havotir*, *o’lim* va *nigilizm*ni anglab yetish; ilm-fanni va mantiqiy yondashishni inkor etish; *mustaqil tanlov* va *fidoyilik* asosida o’z-o’zini aniqlash jarayoni mahsuli bo’lmish *haqiqiylik*ning paydo bo’lishi asosiy mavzular qilib olinadi. Yuqorida aytib o’tganimizdek fransuz ekzistensializmining shiori bu “*mavjudlik mohiyatdan avval*”, ya’ni inson paydo bo’lib o’zligini shakllantiradi. Bu esa tug’ilishdan oldin yozilgan hech qanday yo’l-yo’riq, umuminsoniy tartib, kosmik adolat yoki taqdir yo’qligiga ishora qiladi. Koinot tanlovlarga to’la va mavjud bo’lish uchun inson o’z tanlovlarini qilishi kerak. Sartrning ta’kidlashicha, individning va mavjudlikning o’zidan boshqa hech bir umumiy tushuncha, inson kim ekanligiga, yoki nima uchun mavjudligiga javob topib berolmaydi. Ekzistensializm individual tanlovlar orqali mohiyat yaraladi deb uqtiradi. “Klassik ekzistensializm – bu... mavjudlik mohiyatdan oldin bo’lishi haqidagi ta’limot”, ya’ni Aristotelcha ma’noda inson tabiati degan narsa yo’q. “Inson intilishi uchun o’ziga xos tarzda tuzilgan qadriyatlar to’plami yo’q. Aksincha, insonning xulq-atvorini shakllantiradigan qadriyatlar inson qilgan tanlovlardan kelib chiqadi” [16].

Ekzistensial falsafaning yana bir tushunchasi bu *begonalashish*dir. Bu atamaga Xaydegger tomonidan asos solingan bo’lib, ba’zan “g’ayri oddiy” deb tarjima qilinadi. So’zning o’zagi “Heim” – “uy” degan ma’noni anglatadi, va

shaxsning yashab turgan dunyosida o'zini begona his qilishi tushuniladi. Ushbu fundamental ekzistensial tajriba *kosmos* haqidagi ibtidoiy tushunchaga keskin qarama-qarshidir. U ekzistensial tafakkurni absurd dunyoning zamonaviy tajribasi bilan bog'laydi. Indivud o'ziga nisbatan uchinchi shaxs nuqtai nazaridan boqishi mumkin, chunki inson jamiyat bo'lib yashaydi. Bu hodisa uning mavjudligini bir qismidan begonalashtiradi. Inson begonalashishni boshidan kechira boshlasa, jamiyatdan alohida bo'lgan individ sifatida o'zligiga yondashadi va birdan o'zining "tabiati", "fitrati", "xarakteri" borligini kashf qiladi. Bu kashfiyot ekzistensial terminda anglab yetish, uyg'onish degan tushunchani ifodalaydi. Dunyo bilan mashg'ul bo'lish insonni o'zining asl tabiatidan uzoqlashtiradi. Natijada, "men" – "anonim" yoki "hech kim"ga aylanib, shu holatida muqim qoladi. Aksincha, shaxsning o'ziga xosligi begonalashuvdan qutulish orqali paydo bo'ladi va shu bosqichda keyin ekzistensial tushuncha *haqiqiylik* paydo bo'ladi.

Haqiqiylik yoki nemischa "*eigentlichkeit*" hayot loyihalariga xuddi o'zinikidek munosabatda bo'lishni anglatadi. Agar inson burch uchun jamiyat xatti-harakatlari asosida mavjud bo'lsa u haqiqiylikka erisha olmaydi. Shuni aytib o'tishimiz kerakki, inson mustaqil tanlov orqali jamiyat etikasiga ham ergasha oladi. Lekin, buning natijasida u barcha javobgarlikni o'z bo'yniga olishini taqazo qiladi. Shunday qilib, *Haqiqiylik* uni har bir tanlagan yo'lga javobgar qilib qo'yadi. Ba'zi ekzistensialistlar hikoyaning yaxlitligi haqiqiy hayotning o'lchovidir, o'zlik – bu butunlik tuyg'usi ustun bo'lgan hikoyani yaratish, o'zlik – bu o'ziga xos bo'lgan muallif bo'lishdir, deb ta'kidlaydilar [11]. Boshqa tomondan, *haqiqiy* bo'lmagan mavjudlik deb, o'z taqdirini boshqa shaxslar irodasi topshirish tushuniladi. Xulosa qilib aytganda, ekzistensial haqiqiylikka erishish bu jamiyat, koinot va ilohiy kuchlardan ozod bo'lish demakdir. Bu esa individ hayotiga ma'no bergan barcha da'vatlarni yo'qqa chiqaradi, chunki bu da'vatlarga ergashish ekzistensialistlar tilida *yolg'on imon* deb ta'kidlanadi.

Individ erishgan haqiqiylik *erkinlik*ni yuzaga chiqaradi, bu esa ekzistensial ta'limotning asosiy g'oyasi, inson qadr-qimmatini masalasiga olib boradi. Bu yerdan

esa *tashvish*, *qo'rquv*, *yo'qlik* va *absurd* kabi ekzistensial tushunchalar inson ongida shakllana boshlaydi.

Sartr odamzot azobli darajada erkin, ular erkinlikka hukm qilingan deb uqtiradi. Insonga harakatlari uchun ko'rsatmalar berilmagan – u o'z axloqiy kodeksini ishlab chiqishga, yashash uchun axloqni o'ylab topishga majburdir. *Erkinlik* o'z-o'zini anglab avtonomiyaga aylanganda paydo bo'ladi va bu tushuncha erkinlikning dahshatli darajada ko'pligi tufayli *tashvish*ga yo'liqtiradi. Bu jarayon hayotning absurdligini ham isbotlab beradi. Ekzistensialistlar inson o'z erkinligini absurdizmning nuri bilan qabul qilishi kerak deyдилar. *Yakka shaxs* yoki *begona* terminlari ekzistensializmда aynan shu *erkinlik* va unga nisbatan *tashvish* va *qo'rquv* hislari orqali paydo bo'ldi. *Yakka shaxs* obrazi Sartrning “Ko'ngil aynishi” asaridagi Rokantin obrazida gavdalanadi. Unda *tashvish* narsalarning idrok etilgan tuyg'usini yo'q qiladi, xuddi iborani ma'nosini yo'qotmaguncha takrorlash kabi. Ular oxir-oqibat absurd bo'lib qoladilar.

Sartrning fikriga ko'ra, *qo'rquv*, asosan yashirin bo'lishiga qaramay, butun inson hayotini tavsiflovchi erkinlikning aniq tajribasini taqdim etadi [12; 70]. U ta'riflaganidek, erkinlik ortidan kelgan *qo'rquv* iztirobi inson uchun yoqimli jarayon emas. Buning o'rniga odamzot tinchlikni va boshqalarga ergashib yashashni hohlaydi. Erkinlik tilini esa faqat o'ziga mos kelganda qabul qiladi va boshqalar hohlagandek soxta mavjudlikda yashaydi. Sartr ekzistensializmni gumanizm deb ta'kidlaydi, bu avvalambor inson erkinligidir. U insonni erkin va har bir qilgan ishi uchun javobgar deb biladi.

Jan-Pol Sartr va boshqa fransuz ekzistensialistlari tarixda o'chmas iz qoldirdi. Ularning fikr-g'oyalari to'g'ridan to'g'ri Buyuk Britaniya va Amerika adabiyotiga yoyildi. Ko'pgina ingliz va amerika yozuvchilari o'z asarlarida ekzistensializm g'oyalarini aks ettirdi. Ekzistensializm adabiyotda juda ravon ifodalanganligi uning afzalliklaridan biridir, chunki falsafiy asarlarni tushunish bu fanga ixtisoslashmagan auditoriya uchun qiyinchilikni tug'diradi. Ekzistensializmni tendensiya darajasiga olib chiqqan soha – bu adabiyot va badiiy tildir.

Ekzistensializm – XX asrga shakllanib kirgan falsafiy va adabiy oqimdir. Bu oqim Jan-Pol Sart va uning hamfikir do'tlari Simona de-Bovar va Moris Merlo-Pontilar yordamida jahonga mashxur bo'ldi. Uning asosida individuallik yotadi. Ekzistensializmning shakllanishida nemis olimlarining hissasi juda katta. Soren Kyerkegor va Fridrix Nitshe bu oqimning otalari hisoblanadi. Aynan shu ikki faylasufning individ hayotiga yondashuvi ekzistensializmning ikki turga ajralishiga sabab bo'ldi. Bular diniy va ateistik ekzistensializmdir. Shunga qaramasdan ateistik ekzistensializm namoyondalari oqim rivojlanishida salmoqli o'rinni egallashadi. Ularga Jan-Pol Sartr, Martin Xaydegger, Simona de-Bovar, Albert Kamyu va Moris Merlo Pontilar kiradi.

Ekzistensializm individning hayot ma'nosini o'rganadi. Shu o'rinda, ekzistensial inqiroz degan muammo yuzaga chiqadi. Ekzistensializmning asosiy muammosi mana shu inqirozga yechim topishdir. Ko'pgina badiiy asarlarda bu inqiroz asosiy qahramon obrazida namoyon bo'ladi. Lekin bu asosiy qahramon jamiyatda tan olingan qahramonlik xususiyatlaridan mustasno etib tasvirlanadi. U na yaxshi, na yomon obraz, balki hayotda o'z o'rnini izlab topa olmagan, dinga nisbatan iymonini yo'qotgan, hayotni absurd deb biladigan ekzistensial inqirozdagi shaxsdir. Yuqorida sanab o'tilgan faylasuf va yozuvchilar ekzistensial inqirozga turli xil yondashuvlar bilan yechim ko'rsatadi. Ayrimlar dinni qaytadan kashf etish orqali (Soren Kyerkegor, Karl Yaspers, Fyodr Dostoyevskiy), boshqalari absurd hayotni qabul qilish yordamida (Frans Kafka, Albert Kamyu), Sartr boshchiligidagi ekzistensialistlar esa erkinlik va erkin tanlov orqali maqsadga yo'l topishadi. Bu olamshumul oqim keyinchalik, XX asrning 50–70-yillarida, ingliz va amerika adabiyotida gulladi va o'ziga xos adabiy tendensiyaga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Зардўшт таваллоси: насрий дoston / Фридрих Нитше. Таржимон Иброҳим Ғафуров. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015.
2. Ивашева В.В. Прогресс. На пороге XXI века. НТР и литературы мира, 1978. – Москва: Прогресс.

3. Blattner W. Heidegger: the existential analytic of Dasein. In: Crowell S, ed. The Cambridge Companion to Existentialism. Cambridge Companions to Philosophy. Cambridge University Press; 2012: 158.
4. *Christian Boltanski's Existential Relationship With Abstract Expressionism*. [online]. Available at: <<https://gradesfixer.com/free-essay-examples/christian-boltanskis-existential-relationship-with-abstract-expressionism/>>.
5. Dostoyevsky, The Brothers Karamazov, trans. Richard Pevear and Larissa Volokhonsky (San Francisco: North Point Press, 1990), 245.
6. Existentialism: from Dostoyevsky to Sartre by Walter Kaufman. Pickle Partners publishing. 2016: 10-11.
7. Hannay A. Kierkegaard's single individual and the point of indirect communication. In: Crowell S, ed. The Cambridge Companion to Existentialism. Cambridge Companions to Philosophy. Cambridge University Press; 2012: 73.
8. Heidegger, Martin. B&T. Being and Time. Translated by John Macquarrie and Edward Robinson. Oxford: Blackwell, 1962. First published as Sein und Zeit: Erste Hälste (Halle: Max Niemeyer, 1927).
9. Jean-Paul Sartre. Existentialism is a Humanism. Les Editions Nagel, Methuen & Co. 1948: 28-29.
10. Malpas J. Existentialism as literature. In: Crowell S, ed. The Cambridge Companion to Existentialism. Cambridge Companions to Philosophy. Cambridge University Press; 2012: 293, 295.
11. Nehamas, A., 1998. The Art of Living: Socratic Reflections from Plato to Foucault, Berkeley: University of California Press.
12. Sartre, J.-P., 1943 [1992]. Being and Nothingness, Hazel Barnes (trans.), New York: Washington Square Press, 1992: 70.
13. Schacht R. Nietzsche: after the death of God. In: Crowell S, ed. The Cambridge Companion to Existentialism. Cambridge Companions to Philosophy. Cambridge University Press; 2012:118-119.
14. STUDIA UBB. PHILOSOPHIA, Vol. 59 (2014), No. 2, 64.

15. Walter Kaufmann, *Existentialism from Dostoevsky to Sartre*, Meridian Books, New York, 1960: 51,242.
16. Webber, J., 2018. *Rethinking Existentialism*, Oxford: Oxford University Press. 4,14.
17. Westphal M. Existentialism and religion. In: Crowell S, ed. *The Cambridge Companion to Existentialism*. Cambridge Companions to Philosophy. Cambridge University Press; 2012: 323-325.